Iqtisodiyotni innovatsion isloh qilish sharoitida yer hisobini yuritishning ahamiyati.....	1042
<b>Hojiyev Qo'chqor Mamadiyorovich</b>	
Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni takomillashtirish .....	1047
<b>Sherqulov Nodir Erkin o'g'li</b>	
Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении .....	1052
<b>Гулноза Тохировна Самиева</b>	
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari .....	1057
<b>Majidov Nizomjon</b>	
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari .....	1064
<b>Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
<b>Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li</b>	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati .....	1075
<b>Badalov Jamshid Jamolovich</b>	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
<b>Shirinov Sabir Erkinovich</b>	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari .....	1084
<b>Anvar Eshmatov</b>	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlari .....	1088
<b>Ametova Nasiba Danilovna</b>	
Tijorat banklari tomonidan ekspertyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish .....	1092
<b>Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna</b>	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
<b>Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li</b>	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
<b>Raxmonova Aziza Tolibovna</b>	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan .....	1106
<b>Umarov Elshod G'ulom o'g'li</b>	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
<b>Yuldashov Elmurod Abduljalil o'g'li</b>	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана .....	1116
<b>Икромова Ханифа Одилевна</b>	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
<b>Kamalova Jamila</b>	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari .....	1125
<b>Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi .....	1131
<b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich</b>	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития .....	1136
<b>Туйчиев Комилжон Лазизович</b>	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati .....	1143
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b>	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish .....	1146
<b>Umarov Abdulquddus Abdilxatovich</b>	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах .....	1151
<b>Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
<b>Усманова Дилфузахон Иброхимовна</b>	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities .....	1163
<b>Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li</b>	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
<b>Xolmatov Sanjarbek Xojimamatovich</b>	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
<b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralarini .....	1181
<b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
<b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
<b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
<b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
<b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
<b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
<b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari.....	1232
<b>Rahmanov Ilxom Xurramovich</b>	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
<b>Рафиева Зарина Хусановна</b>	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
<b>Akhmedov Doniyorbek</b>	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
<b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production.....	1254
<b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rne va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
<b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati.....	1272
<b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
<b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
<b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
<b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
<b>Мансурова Севара Мансуровна</b>	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
<b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>	



## OBLIGATSIYALAR BOZORIDA BANKLARNING ISHTIROKI VA AHAMIYATI

**Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li**

Toshkent moliya instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tijorat banklarining jahon va mahalliy fond bozorida yevroobligatsiyalar va korporativ obligatsiyalar emissiyasi bo'yicha ishtiroki tahlil qilingan bo'lib so'ngi yillarda banklarning obligatsiyalar bozorida ulushi va ahamiyati yoritib o'tilgan. Shuningdek, xorij va mahalliy iqtisodchi olimlarning banklar va obligatsiyalar bozori o'rtasidagi moliyaviy munosabatlarga nisbatan bergan fikrlari o'rganilgan hamda banklarning obligatsiyalar bozorida ahamiyati bo'yicha xulosalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** obligatsiyalar bozori, bank, listing, emissiya, daromadlilik, foiz stavkasi, yevroobligatsiyalar, kapital, diversifikatsiya, depozit, portfel.

**Abstract:** This article analyzes the participation of commercial banks in the global and local stock market on eurobonds and corporate bond issues, highlighting the share and importance of banks in the bond market in recent years. Opinions of foreign and domestic economists regarding financial relations between banks and the bond market have also been studied, and conclusions have been drawn on the importance of banks in the bond market.

**Key words:** bond market, banking, listing, emissions, profitability, interest rate, eurobonds, capital, diversification, deposit, portfolio.

**Аннотация:** В данной статье анализируется участие коммерческих банков на мировых и локальных фондовых рынках в выпуске еврооблигаций и корпоративных облигаций, а также освещается доля и значение банков на рынке облигаций в последние годы. Также изучены мнения зарубежных и отечественных экономистов относительно финансовых взаимоотношений банков и рынка облигаций и сделаны выводы о значении банков на рынке облигаций.

**Ключевые слова:** рынок облигаций, банк, листинг, выпуск, доходность, процентная ставка, еврооблигации, капитал, диверсификация, депозит, портфель.

### KIRISH

Iqtisodiyotning doimiy va barqaror ravishda rivojlanishi barcha sohalarning pul mablag'lari bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Iqtisodiyotni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashda fond bozorlari va banklarning ahamiyati yuqori hisoblanadi. Iqtisodiy sohalarning bir-biriga yaqinlashuvi kuchayib borayotganligini hisobga olib banklarning fond bozorlari bilan iqtisodiy aloqalari o'ziga xos xarakterga ega. Banklarning fond bozorida tutgan alohida mavqei shundan iboratki, ular moliya bozorining boshqa ishtirokchilaridan farqli ravishda bir vaqtning o'zida bir necha vazifalarni bajaradi. Ya'ni banklar bir tomondan fond bozorida aksiyalar, obligatsiyalar, depozit sertifikatlari hamda bank veksellari emitentlari sifatida, ikkinchi tomondan boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar va davlat qimmatli qog'ozlarini sotib oluvchi sarmoyadorlar sifatida qatnashadi. Qo'shimcha ravishda banklar o'z mijozlariga turli moliyaviy maslahatlar beradigan, qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar qilish uchun ularga berilgan qimmatli qog'ozlar va pul mablag'larini boshqarish yuzasidan xizmatlar ko'rsatadigan investitsiya tashkiloti sifatida qatnashadi.

Tijorat banklari qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, pul mablag'lari harakatini boshqaruvchi vazifasini bajaradi. Qimmatli qog'ozlar bozorining oldi-sotdi jarayonlari natijasida bozorning har bir ishtirokchisi tijorat bankining xizmatidan foydalanadi. Chunki tijorat banklari moliya bozori ishtirokchilarining joriy hisob-kitob raqamlarini va boshqa hisob raqamlarini ochadi, ularda pul mablag'larini, shu jumladan, qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq mablag'larni saqlaydi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki mamlakat bank tizimidagi depozit sertifikatlari va depozit sertifikat-



larini muomalaga chiqarish, muomalada bo'lishini nazorat qilish hamda muomaladan chiqarish uchun javobgarlikni olib borish bilan bir vaqtda, u mamlakat fond bozorining malakali ishtirokchisi sifatida fond bozorining faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solishda ma'lum vazifalarni bajaradi. Kapital jalb qilishda fond bozori va banklarning bir-biriga raqobatchi ekanligini hisobga iqtisodiy rivojlangan davlatlar: Buyuk Britaniya, Kanada, Fransiya, Yaponiya va boshqa bir qancha davlatlarning qonunchiligida so'nggi vaqtlargacha tijorat banklarining fond birjalari faoliyatida bevosita qatnashishi taqiqlangan edi. Ammo bugungi kunda fond bozori va banklarning integratsiyalashuvi barcha davlatlarda yuqori sur'atlarda bormoqda. O'zbekistonda ham moliyaviy barqaror hisoblangan tijorat banklari korporativ va xalqaro obligatsiyalar orqali xalqaro hamda mahalliy obligatsiyalar bozorida faol ishtirok etmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining kapital bozorida, xususan obligatsiyalar bozorida ishtiroki va ahamiyati bo'yicha ko'plab xorijiy va o'zbek iqtisodchi olimlari ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Tijorat banklarining fond bozorida ishtiroki orqali ularning obligatsiyalar portfelini shakllantirish masalalari bo'yicha I. R. Baybekov o'z tadqiqot ishlarini olib borgan. Bunda asosiy e'tibor bank daromadlarini diversifikatsiyalash nuqtai nazaridan obligatsiyalar portfelini ham diversifikatsiyalashda obligatsiya emitentlarini sifat jihatidan baholash metodikasiga qaratiladi<sup>1</sup>. Obligatsiyalar portfelini samarali diversifikatsiyalash bank daromadlilikiga ijobiy ta'sir ko'rsatib uning fond bozorida mavqeini mustahkamlaydi va bu orqali banklarni obligatsiya emitentlari sifatida baholash imkoniyati paydo bo'ladi.

Taniqli iqtisodchi olim Frederic S. Mishkin AQSH qimmatli qog'ozlar bozori va banklarning o'zaro munosabatlarini o'rganish orqali AQShdagi tijorat banklari o'z qimmatli qog'ozlarini (aksiyalari, obligatsiyalari va depozit sertifikatlari) fond bozorida joylashtirish orqali kapital jalb qilishlari, qimmatli qog'ozlar bozorida investitsion faoliyat nuqtai nazaridan asosan federal, shtat yoki mahalliy obligatsiyalarga mablag' yo'naltirishi mumkinligini<sup>2</sup> o'rganishgan. Davlat tomonidan tijorat banklarining asosan obligatsiyalar bozorida ishtirokining qo'llab quvatlanishi natijasida AQSH obligatsiyalar bozori boshqa qimmatli qog'ozlarning bozor kapitallashuviga qaraganda yuqori qiymatni qayd etganligini ko'rishimiz mumkin.

J. Hawkins fikricha, "ayrim mamlakatlarda banklar korporativ obligatsiyalarning asosiy egalari hisoblanadi. Masalan, Indoneziyada banklar korporativ obligatsiyalarning asosiy qismiga egalik qiladi hamda mazkur tendensiya Argentina, Braziliya, Chili va Malayziyada ham kuzatiladi. Banklar depozitlarni qoplash uchun obligatsiyalar bozorlaridan foydalanadi. Ko'p hollarda (masalan, Braziliya, Xitoy, Germaniya, Hindiston, Indoneziya, Meksika, Polsha, Rossiya, Tailand kabi mamlakatlarda) banklar va boshqa moliya institutlari mahalliy obligatsiyalar emissiyasini tez-tez amalga oshiradi"<sup>3</sup>. Banklarning depozit to'lovlar va boshqa operatsion xarajatlarni korporativ obligatsiyalar emissiyasi orqali qondirilishi bankning fond bozorida murakkab munosabatlarini anglatadi.

Pradhan R. P., Zaki D. B., Maradana R. P., Dash S., Jayakumar M., Chatterjee D "Obligatsiyalar bozorining rivojlanishini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak, chunki u bank sektorini rivojlantirish va fond bozorlarini rivojlantirish kabi iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi"<sup>4</sup> – deya ta'kidlab o'tgan. Yirik miqdordagi mablag'larning bank sektori orqali obligatsiyalar bozorida muomalada bo'lishi har ikkala tomon uchun ham iqtisodiy o'sishga erishishda ko'maklashadi.

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan J. P. Bo'riyev Tijorat banklarining fond bozorida faoliyati davomida duch kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy tadqiqodlar olib borgan. Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozorida faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan asosiy omillardan biri sifatida tijorat banklarining moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha mustaqilligining cheklanganligini<sup>5</sup> ta'kidlab o'tgan. Banklar faoliyatining davlat tomonidan berilgan ko'rsatmalar asosida tashkil etilishi investitsion faoliyat orqali daromadlilikni diversifikatsiyalash masalalariga to'sqinlik qiladi.

Mazkur tadqiqot ishimizda obligatsiyalar bozorini rivojlantirishda tijorat banklarining rolini oshirish hamda banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda fond bozorida turli moliyaviy xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, banklarning obligatsiyalar orqali moliyaviy resurs jalb qilishdagi ustunlik va imkoniyatlari keltirib o'tilgan.

1 Байбеков И.Р. Формирование облигационных портфелей коммерческими банками на российском биржевом рынке. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. –Саратов, 2015. – 29 с.

2 Frederic S. Mishkin. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets, 11th Edition. Pearson, 2016. – P. 235. (745 p).

3 John Hawkins. Bond markets and banks in emerging economies. // Bank for International Settlements Papers № 11, 2002.

4 Pradhan R.P., Zaki D.B., Maradana R.P., Dash S., Jayakumar M., Chatterjee D. Bond market development and economic growth: The G-20 experience. // Review of Applied Management Studies, Vol. 13. Issue 1, January-June, 2015. P. 51-65.

5 Bo'riyev Jamshid Parda o'g'li. Tijorat banklarining fond bozorida faoliyatidagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari. Iqtisod va moliya / Экономика и финансы 2020, 4(136)




## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyatini yoritishda ilmiy abstraksiyalash, qiyoslash metodlaridan foydalanilgan. Mamlakatimizda obligatsiyalar bozorining joriy holati taqqoslama tahlil, statistik tahlil, analiz kabi metodlardan foydalanilgan holda o'rganilgan.

## TAHLIL VA NATIJA

Tijorat banklarining kapital bozorida faollik darajasini o'rganishda ularning fond birjasida listingdan o'tganligi hamda ularning bozorga taklif etayotgan moliyaviy aktivlari va xizmatlari muhim ahamiyat kasb etadi. "Toshkent" RFBda 2022-yil holatiga ko'ra jami 139 ta aksiyadorlik jamiyati listingdan o'tgan bo'lib, ular orasida 18 tasi tijorat banki hisoblanadi. Dastlab 2003-yil listingdan o'tgan tijorat banki "O'zsanoatqurilishbank" ATB hisoblangan, eng so'nggisi "Orient Finance" XATB 2021-yil listingdan o'tgan. Bugungi kunda aksiyadorlik tijorat banklari kapital bozorida o'z aksiyalari va obligatsiyalari bilan mahalliy va xorijiy moliya bozorida faol ishtirok etib kelmoqda.



1-rasm: "Toshkent" RFBda listingdan o'tgan tijorat banklari va ularning aksiyalari tahlili. (2022-yil yakuni holatiga)<sup>6</sup>

Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan O'zbekistondagi tijorat banklarining moliya bozorida aksiyalar orqali ishtirokini ko'rishimiz mumkin. Tijorat banklari o'z aksiyalarini fond bozorida taklif etishi bozorda investorlar sonining ortishiga olib kelmoqda. E'tiborli jihati ba'zi tijorat banklarining aksiyalari nominal qiymati 1 so'mgacha

<sup>6</sup> <https://www.uzse.uz> "Toshkent" RFB rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



etib belgilanganligi minoritar aksiyadorlar sonining ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Masalan, "Ipotekabank" ATIB aksiyalarining nominal qiymati 1 so'm va bu qiymat jismoniy shaxslarni bank aksiyadori bo'lishga undaydi, shuningdek, bugungi kunda bu aksiyalarning bozor qiymati nominal qiymatidan ham past narxda baholanmoqda. Moliyaviy ko'rsatkichlari barqaror tijorat banklarining aksiyalari bozorda o'sish trendga ega hisoblanadi. "Kapitalbank" ATB, "Trastbank" XAB kabi banklarning yillik daromadlari va shunga mos tarzda aksiyalarining bozor bahosi ham sezilarli darajada o'sgan. Umuman olganda banklarni bir tomondan fond bozoriga raqobatchi sifatida ko'rsak, ikkinchi tomondan fond bozorining rivojlanishiga hissa qo'shuvchi moliya institutlari sifatida qaraymiz.

Banklarning obligatsiyalar sektoridagi ishtirokiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mamlakatimizda tijorat banklari tomonidan korporativ obligatsiyalar emissiyasi kam sonli tijorat banklari tomonidan amalga oshirilayotganligiga guvoh bo'lish mumkin. Xususan, mahalliy bozorga bir qator tijorat banklari tomonidan korporativ obligatsiyalar chiqarilgan bo'lsada, obligatsiyalar orqali kapital jalb qilish amaliyotining banklar o'rtasidagi ommalashuvi yaqqol ko'zga tashlanmayapti.

1-jadval: "Kapitalbank" ATB tomonidan chiqarilgan mahalliy obligatsiyalar emissiyasi<sup>7</sup>

№	Emissiya qilingan yil	Obligatsiyalarning nominal qiymati (so'm)	Chiqarilgan obligatsiyalar umumiy qiymati (so'm)	Obligatsiyalar soni (dona)
1	2009-yil	1 mln	5 mlrd.	5 ming
2	2012-yil	1 mln	4 mlrd	4 ming
3	2020-yil	1 mln	50 mlrd	5 ming
4	2021-yil	10 mln	150 mlrd	15 ming

Tijorat banklari orasida "Kapitalbank" ATB obligatsiyalar bozorida o'z obligatsiyalarini joylashtirgan kam sonli banklar sirasiga kiradi. "Kapitalbank" ATB dastlab 2009-yil nominal qiymati 1 mln so'm bo'lgan jami 5 mlrd so'mlik korporativ obligatsiyalarni mahalliy fond bozoriga joylashtirgan. Keyingi, 2012-2020-yillarda ham 4 mlrd so'mlik va 50 mlrd so'mlik obligatsiyalarni muomalaga chiqarish orqali moliya bozorida kapital jalb qilishga erishdi. 2021-yilda esa katta hajmdagi, 150 mlrd so'mlik obligatsiyalarni fond bozoriga joylashtirishga muvaffaq bo'ldi. Mahalliy va xalqaro bozorlarga o'z obligatsiyalarini joylashtirish bankning yuqori reytingga va salohiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, respublikamizda "Kapitalbank" ATBdan tashqari "O'zsanoatqurilishbank" ATB, "Ipoteka bank" ATIB, "Asia Alliance Bank" ATB kabi banklarni ham obligatsiyalar bozorida ishtirokini ko'rishimiz mumkin.

Xalqaro korporativ obligatsiyalar emissiyasi orqali nisbatan arzon va katta hajmdagi moliyaviy resurs jalb qilish imkoniyati mavjud bo'lsada, xalqaro obligatsiyalar bozorida tajriba va amaliyotning kamligi tijorat banklariga bu sohada to'siq bo'lmoqda. Xalqaro korporativ obligatsiyalar emissiyasi bo'yicha sanoqli tijorat banklari tomonidan operatsiyalar amalga oshirilgan.

2-jadval: "O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan chiqarilgan ilk yevroobligatsiyalar tahlili<sup>8</sup>

Nashr hajmi (mln. AQSH dollari)	Nominal qiymati (ming AQSH dollari)	Chiqarilgan obligatsiyalarning umumiy soni	Yillik foiz stavkasi	Joylashtirilgan sana	To'lov sanasi	Emission hujjat
300	200	1 500	5,75	02.12.2019	02.12.2024	Bank xalqaro obligatsiyalarining risolasi, 28.11.2019

2-jadvalda mamlakatimiz tarixida birinchi bo'lib 2019-yildagi "O'zsanoatqurilishbank" ATB tomonidan amalga oshirilgan korporativ yevroobligatsiyalar emissiyasiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Mazkur amaliyot natijasida London fond birjasiga nominal qiymati 200 ming AQSH dollari bo'lgan 1500 dona jami 300 mln AQSH dollari miqdoridagi yevroobligatsiyalar joylashtirilgan. Xalqaro bozor orqali yillik 5,75 foiz stavkada jalb qilingan bu mablag' iqtisodiyoti rivojlanayotdan davlat uchun kattagina moliyaviy imkoniyat demakdir.

7 <https://www.kapitalbank.uz/uz/corporate/securities-transactions/stock/> – "Kapitalbank" ATB rasmiy sayti ma'lumotlari.

8 <https://sqb.uz> "O'zsanoatqurilishbank" ATB rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

**3-jadval: “Ipoteka bank” ATIB tomonidan emissiya qilingan uzoq muddatli xalqaro obligatsiyalar tahlili<sup>9</sup>**

№	Emissiya umumiy hajmi	Kupon stavkasi	Muddati	Joylashtirish sanasi	So'ndirilish sanasi	Listing
1	300 mln. AQSH dollari	5,50 %	5 yil	19.11.2020	19.11.2025	London Fond Birjasi
2	785 mlrd o'zbek so'mi	16 %	3 yil	16.04.2021	16.04.2024	Vena Fond Birjasi

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, “O'zsanoatqurilishbank” ATBning dastlabki xalqaro obligatsiyalar bozorida ishtirokidan so'ng “Ipoteka bank” ATIB ham o'z xalqaro obligatsiyalarini London va Vena Fond Birjalarida joylashtirdi. Dastlab 2020-yilda 5,50 % kupon stavkada 300 mln. AQSH dollariga teng moliyaviy resurs jalb qilgan bo'lsa, 2021-yilda esa 785 mlrd so'm (75 mln. AQSH dollari ekvivalenti) kapital jalb qilishga erishdi. Ikkala holatda ham ko'rishimiz mumkinki, xalqaro miqyosda jalb qilingan qarz kapitali ichki bozor orqali jalb qilingan qarz kapitaliga nisbatan arzon hisoblanadi.

**XULOSA**

Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyatini tahlil qilish orqali quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Mamlakat hukumati obligatsiyalar bozorining rivojlanishini e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim. Chunki davlat obligatsiyalar bozorini rivojlantirish orqali bank sektori bilan raqobatni yuzaga keltirishi, bank sektorini rivojlantirishi hamda umumiy fond bozori faoliyatini samarali yo'lga qo'yishi mumkin bo'ladi.
2. So'nggi yillarda mamlakatimizda aksiyadorlik jamiyatlari, jumladan, tijorat banklari tomonidan yevroobligatsiyalar orqali kapital jalb qilish amaliyotlari tashkil etildi. Mazkur jarayon chet ellik investorlarning respublikamiz banklariga bo'lgan ishonchini yanada ortishiga va ularning hamkorlik doirasining kengayishiga xizmat qilmoqda.
3. Tijorat banklarining obligatsiyalar bozorida ishtiroki bilan ikki tomonlama, ya'ni ham bank sektorining rivojlanishi ham obligatsiyalar bozorining kapitallashuv darajasini oshishiga olib keladi. Bu esa umumiy iqtisodiy barqarorlikka erishish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar tahlili:**

1. Frederic S. Mishkin. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets, 11th Edition. Pearson, 2016. – P. 235. (745 p).
2. Байбеков И.Р. Формирование облигационных портфелей коммерческими банками на российском биржевом рынке. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кан-дидата экономических наук. –Саратов, 2015. – 29 с.
3. John Hawkins. Bond markets and banks in emerging economies. // Bank for International Settlements Papers № 11, 2002.
4. Pradhan R.P., Zaki D.B., Maradana R.P., Dash S., Jayakumar M., Chatterjee D. Bond market development and economic growth: The G-20 experience. // Review of Applied Management Studies, Vol. 13. Issue 1, January-June, 2015. P. 51-65.
5. Bo'riyev Jamshid Parda o'g'li. Tijorat banklarining fond bozorida faoliyatidagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari. Iqtisod va moliya / Экономика и финансы 2020, 4(136)
6. <https://www.kapitalbank.uz>
7. <https://www.uzse.uz>
8. <https://sqb.uz>
9. <https://www.ipotekabank.uz>

<sup>9</sup> <https://www.ipotekabank.uz> “Ipoteka bank” ATIB rasmiy sayti ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Jtjmoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

## Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"  
jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

